

XRISTIANLIK DINI. PROVASLAV, KATOLIK VA PROTESTANTIZM ASOSIY MAZHABLARI

Saydullayeva Aynura

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti

Tarix23.01-guruh talabasi

@saydullayevaaynura2gmail.com

Anotatsiya

Ushbu maqolada Xristianlik dinining uch asosiy yoʻnalishi — provaslavlilik, katoliklik va protestantizmning kelib chiqishi, asosiy eʼtiqodiy farqlari hamda tarixiy rivojlanishi yoritilgan. Har bir mazhabning oʻziga xos diniy amaliyotlari, ibodat shakllari va cherkov tuzilmalari taqqoslab tahlil qilingan. Maqolada shuningdek, ushbu mazhablarning bugungi kunda dunyodagi tarqalish darajasi va oʻzaro munosabatlari haqida ham soʻz yuritiladi. Mazkur tahlil orqali oʻquvchilarga Xristianlik dinining mazmunan boy va murakkab diniy tuzilmasi haqida kengroq tasavvur berish maqsad qilingan.

Kalit soʻzlar: Xristianlik, provaslavlilik, katoliklik, protestantizm, diniy yoʻnalishlar, cherkov tarixi, diniy eʼtiqod, mazhablar, diniy amaliyot, Yevropa diniy tarixi.

Аннотация

В данной статье рассматриваются три основные направления христианства — православие, католицизм и протестантизм, их происхождение, основные вероучительные различия и историческое развитие. Проведен сравнительный анализ религиозных практик, форм богослужений и церковных структур каждой конфессии. Также затрагивается современное распространение этих течений в мире и их взаимоотношения. Цель статьи — дать читателю более полное представление о богатом и сложном религиозном устройстве христианства.

Ключевые слова: Христианство, православие, католицизм, протестантизм, религиозные направления, история церкви, религиозные верования, конфессии, богослужение, религиозная практика, история религии Европы.

Abstract

This article explores the three main branches of Christianity — Orthodoxy, Catholicism, and Protestantism — focusing on their origins, key theological differences, and historical development. It provides a comparative analysis of their religious practices, forms of worship, and church structures. The article also discusses their current global distribution and interrelations. The aim is to give readers a broader understanding of Christianity's rich and complex religious framework.

Keywords: Christianity, Orthodoxy, Catholicism, Protestantism, religious branches, church history, religious belief, denominations, worship practices, European religious history.

Xristianlik (xristian dini) bugungi kunda dunyodagi eng yirik dinlardan biri bo'lib, qariyb 2,4 milliard izdoshlarga ega. U I asrda Iso Masihning ta'limotlariga asoslangan holda shakllangan va o'zining asosiy tamoyillari bilan turli madaniyatlarga moslashib kelmoqda. Bugungi kunda xristianlik bir necha asosiy oqimlarga bo'lingan ya'ni katoliklik, pravoslavlik va protestantlik. Xristianlar dunyoning deyarli barcha qit'alarida yashaydilar, eng ko'p AQSh, Yevropa, Lotin Amerikasi va Afrika davlatlarida uchraydi. Xristianlik qadriyatlari va an'analari ko'plab mamlakatlarda qonunlar, san'at, ta'lim va kundalik hayotga ta'sir ko'rsatgan. Xristianlik zamonaviy dunyoda ekologik masalalar, ijtimoiy tenglik va ilmiy taraqqiyot kabi mavzularga faol munosabat bildiradi. Dinning targ'iboti va ta'limoti onlayn platformalar orqali ham amalga oshirilmoqda.

Xristianlik eramizning Bibi Maryam ikonasi boshida Rim imperiyasining sharqiy qismida Falastin yerlarida vujudga keldi. Iso Masix (Iisus Xristos) Bibliyaning xabar berishiga ko'ra, xristianlik ta'limotining asoschisi bo'lib, u Rim imperiyasi tashkil topganining 747-yili Falastinning Nazaret qishlog'ida bokira qiz Maryamdan Xudoning amri bilan dunyoga keldi. Yangi eraning boshlanishi ham Iso Masixning dunyoga kelishi bilan bog'liq. Eramizning boshlarida yaxudiylar xokimiyatning uch tabaqasi bilan bog'liq og'ir tushkunlikni boshdan kechirar edilar. Bir tomondan Rim imperatori uning joylardagi noiblari, ikkinchi tomondan Falastin podshoxi Irod Antipa, uchinchi tomondan esa ruhoniylar xalqni turli soliqlar va majburiyatlar bilan ko'mib tashlagan edilar. Xuddi shu davrda yaxudiylar o'rtasida kutilayotgan xaloskorning kelishi yaqinlashib qolganligi haqida xabar tarqatuvchilar paydo bo'ldi. Ular xalqni kutilayotgan xaloskor kelishiga tayyorlash uchun chiqqan edilar. Shunda Iso Masix yaxudiylikni islox qilish va uni turli xurofotlardan tozalash g'oyasi bilan chiqib, xristian diniga asos soldi. Yaxudiylar uni va uning izdoshlarini Falastindan quvg'in qildilar. Isoning 33 yoshida fitnachilikda ayblab qatl etishga xukm qildilar.¹

Isoning tarixiyligi xususida diniy va diniy bo'lmagan manbalar orasida ixtilof mavjud: xristianlik manbalari Isoning o'zi xudo bo'la turib, insoniyatning gunoxlarini o'ziga olish uchun odam qiyofasida tug'ilganini, uning tarixiy shaxs ekanini ta'kidlab, uning hayot tarzini, insonlar bilan muloqoti haqidagi keng ma'lumotlarni bersada, diniy bo'lmagan manbalarda Isoning nomi uchramaganligini nazarda tutib, u tarixiy emas, balki afsonaviy shaxsdir deguvchilar ham bor.

¹ H.B.Durdona.Buxoro.-B.79. Dinshunoslik.Haydarova

Iso nomiga qo‘shiluvchi Masix so‘zi qadimiy yaxudiy tili - ivritdagi “moshiax” so‘zidan olingan bo‘lib, “silangan” yoki siylangan” ma’nolarini beradi. Grekchada bu so‘z “xristos” (“christos”) shakliga ega. Bu dinning “xristianlik” yoki “masixiylik” deb atalishi ham shu so‘zlar bilan bog‘liq. Bundan tashqari xristianlik Iso Masixning tug‘ilgan qishlog‘i - “Nazaret” bilan bog‘lab, nazroniyya deb ham atalgan. Keyinchalik bu nom nasroniyya, nasroniylik shaklini olgan. Iso Masix o‘z ta’limotini o‘zining 12 o‘quvisi Apostollar - Xavoriylarga o‘rgatdi. Ular esa Isoning vafotidan keyin ustozlarining ta’limotlarini har birlari alohida-alohida tarzda kitob shakliga keltirdilar. Bu kitoblar Bibliyaning “Yangi axd” qismini tashkil etadi. Xristianlikning ta’limoti. Manbalar xabar berishicha, xristianlik yaxudiy muxitida yuzaga kelgan. Bu esa xristianlikning yaxudiylikdan ko‘p jixatdan ta’sirlanishiga sabab bo‘ldi. Xristianlikning asosiy g‘oyasi - Isoning odamzodning xaloskori messiya” ekanligi yaxudiylikda mavjud bo‘lib, oxiratga yaqin kelishi kutilayotgan xaloskor haqidagi ta’limotdan kelib chiqqandir. Keyinchalik bu ta’limot Xudoning mujassamlanishi yoki Isoning ikki xil - odam va xudo moxiyati haqida “gunoxni yuvish”, ya’ni Isoning o‘zini ixtiyoriy tarzda qurbon qilishi haqidagi ta’limot bilan mustaxkamlanadi. Xristianlik muqaddas ruh ota-xudo, bola-xudo va muqaddas ruh - uch yuzlik xudo to‘g‘risidagi ta’limoti, targ‘ibot - tashkilotchilik, jannat va do‘zax, oxiratta go‘yo dunyoning oxiriga borish, Isoning qaytishi haqida va boshqa aqidalarni o‘z ichiga oladi. Xristian jamoasining shakllanishi, uning aqidalarini tartibga solinishi, cherkov munosabatlarining ishlab chiqilishi, diniy tabaqalar tuzumining vujudga kelishi eramizning IV asr boshlarida 324 yili xristianlik Rim imperiyasida davlat dini deb e’lon qilinganidan so‘ng amalga oshdi. 325 yili tarixda birinchi marta Rim imperatori Litsiniya imperiya hududidagi xristian jamoalarini o‘zaro kelishtirish va tartibga solish maqsadida Nikey shaxrida I Butun Olam Xristian Soborini chaqirdi. 381 yili Konstantinopolda II Butun Olam Xristian Sobori bo‘lib o‘tdi. Bu soborlarda xristianlik ta’limotining asoslari qabul qilindi va bu asoslar 12 qismda ifodalandi. B²irinchi qismda olamni yaratgan Xudo haqida so‘z yuritiladi. Ikkinchi qismda Xudoning o‘g‘li Isus Xristosga imon keltirish haqida so‘z boradi. Uchinchi qismda ilohiy mujassamlashuv haqida so‘z yuritilib, unga ko‘ra, Iso Xudo bo‘la turib, bokira Bibi Maryamdan tug‘ilgan va inson qiyofasiga kirgan. To‘rtinchi qismda Isoning azob-uqubatlari va o‘limi haqida so‘z ketadi. Bu gunoxlarning kechirilishi haqidagi aqidadir. Bunda Isoning tortgan azoblari va o‘limi tufayli Xudo tomonidan insoniyatning barcha gunoxlari kechiriladi deb e’tiqod qilinadi.

Beshinchi qismda Isoning xochga mixlanganidan so‘ng uch kun o‘tib qayta tirilganligi haqidagi aqida keladi. Oltinchi qismda Isoning meroji haqida so‘z yuritiladi. Yettinchi qismda Isoning nuzuli (ikkinchi marotaba erga qaytishi) haqida so‘z

² DINSHUNOSLIK O‘quv qo‘llanma.

yuritiladi. Sakkinchi qism Muqaddas Ruhga imon keltirmoq borasidadir. To‘qqizinchi qism cherkovga munosabat haqida. O‘ninchi qismda cho‘qintirishning gunohlardan forig‘ qilishi haqida. O‘n birinchi qism o‘lganlarning ommaviy tirilishi haqida. O‘n ikkinchi qismda abadiy hayot haqida so‘z yuritiladi. Pravoslav oqimi xristianlikning uch asosiy yo‘nalishidan biri o‘laroq, tarixan uning sharqiy shohobchasi sifatida shakllandi. Bu oqim, asosan, Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Bolqon mamlakatlarida tarqalgan. Pravoslav atamasi yunoncha “ortodoksiya” so‘zidan olingan bo‘lib, ilk davr xristian yozuvchilari asarlarida uchraydi. Pravoslaviyaning kitobiy asoslari Vizantiyada shakllandi, chunki bu yo‘nalish u yerdagi hukmron din edi. Muqaddas kitob bo‘lmish Injil va muqaddas o‘gitlar IV-VIII asrlardagi yettita soborning qarorlari, shuningdek, Afanasiy Aleksandriyskiy, Vasiliy Velikiy, Grigoriy Bogoslov, Ioann Damaskin, Ioann Zlatoust kabi yirik cherkov xodimlarining asarlari ushbu oqim ta’limotining asosi deb tan olingan. Pravoslav cherkovi bayramlar va diniy marosimlarga alohida ahamiyat beradi. Pasxa bayramidan so‘ng pravoslav dinining o‘n ikki kunlik o‘n ikki muhim bayrami boshlanadi. Cherkov yili eski hisobga muvofiq 1-sentyabrdan boshlanadi. Isoning cho‘qintirilishi (“Крещение Господня”) bayrami 6-yanvarda nishonlanadi. Buyuk bayramlar ichida Pasxa birinchi o‘rinda turadi. Pasxa – Isoning o‘lganidan so‘ng qayta tirilganini nishonlab o‘tkaziladigan bayram. Pasxaning tarixi yahudiylilikdagi peysax bayrami bilan bog‘liq bo‘lib, u yahudiylarning Misrdan qochib chiqishi va ozodlikka erishishining nishonlanishidir. Xristianlik yahudiylikdan to‘la ajralib chiqqach Pasxa yangicha tus olgan. Yuqorida sanab o‘tilgan bayramlar oldidan ularga tayyorgarlik sifatida turli muddatli ro‘za tadbirlari o‘tkaziladi. Uning mohiyati inson ruhini tozalash va yangilash, diniy hayotning muhim voqealariga tayyorgarlikdan iborat. Katolitsizm muqaddas ruh faqat xudo-otadan emas, balki xudoo‘g‘ildan ham paydo bo‘lgan, Rim papasi Isoning yerdagi noibi, u din va axloq ishlarida gunoh qilmaydi, uning hokimiyati jahon soborlari hokimiyatidan yuqori turadi deb hisoblaydi. Katolitsizm faqat muqaddas yozuv (Bibliya)ni emas, balki muqaddas rivoyatni ham diniy ta’limotning manbai deb biladi. Katolitsizm, pravoslaviyedan farqli ravishda, muqaddas rivoyatga katolik cherkovlari jahon soborlarining qarorlari va papaning fikrlari ham qo‘shilgan. Ruhoniylarning uylanmasligi, Bibi Maryam bokira bo‘la turib Isonni tug‘ishi, uning jismi osmonga ko‘tarilib ketishi aqidasi e’tirof etish, e’tiqod timsoliga a’rof aqidasi qo‘shish Katolitsizmga xos xususiyatdir. Katolitsizm uchun marosimlarni tantanali o‘tkazish, jafo chekkanlarni, avliyolarni izzat-hurmat qilish harakterlidir. Katolitsizm, ibodat asrlar davomida lotin tilida olib borilgan, II Vatikan sobori (1962—65) ibodatni milliy tillarda o‘tkazishga ruxsat bergan. Katolitsizmga ko‘proq Foma Akvinskiyning diniy qarashlari asos qilib olingan.³

³ Issuing God's Call : Jesus' Relationship to his Disciples“, God's Equal : What Can We Know About Jesus’

XVI asrning boshlarida “Islahot” deb nomlangan diniy inqilob boshlangan. Natijada protestantlik dinining ko‘plab tarmoqlari paydo bo‘lgan. Ikkala so‘z — islroh va protestantizm ham diniy inqiloblardagi asosiy narsa o‘zgarishlarga bo‘lgan ishtiyoq ekanligini anglatadi va bu keyinchalik katolik cherkovida sodir bo‘lgan. Norozilikning sabablaridan biri bu — ko‘plab cherkov bosh ruhoniylarining turmush tarzi edi. Ular ruhoniylar uchun moddiy tashvishlar ma’naviy hayotdan ko‘ra muhimroq ekanligini ko‘rgan.

Bundan tashqari, islrohchilar gunohi uchun odamlarni jazodan ozod qiladigan rasmiy hujjat — indulgensiylarning sotilishiga qarshi chiqqan. Garchi islrohga hissa qo‘shgan boshqa kuchlar ham bo‘lsada, ko‘pchilik monastirlarning ulkan yerga egaligiga hasad qilgan. Ko‘p odamlar islrohchilar safiga ko‘proq siyosiy va iqtisodiy sabablarga ko‘ra qo‘shilgan. Millatchilik o‘sgan va uning to‘lqinida milliy cherkovga intilish paydo bo‘lgan.

Yana bir sabab shundaki, o‘sha vaqtda Rim papasi kuchiga shubha tug‘ilgan edi, chunki bu cherkov ishlariga ta’sir qilardi. Hazratlar hokimiyatni bir-biri bilan bo‘lishishni boshlaganida katta kelishmovchiliklar paydo bo‘lgan. 1517-yilda vijdotsiz savdogarlar tomonidan indulgensiylarni sotish shu darajaga yetganki, bu nemis ⁴olimi va avliyo Avgustin ordeni tarafdori Martin Lyuterning noroziligiga sabab bo‘lgan. U cherkovdan chetlatilgan (murtad deb e’lon qilingan), bid’atchi deb e’lon qilingan. Lekin uning ta’limoti keng tarqalgan. 1530-yilda u protestant e’tiqodining 21 ta moddasini o‘z ichiga olgan Augsburg istig‘forini nashr etgan. Natijada katoliklar va lyuteranlar to‘liq bo‘linib ketgan. Protestant cherkovi asos bo‘lgan islroh aqidolari turli shakllarda boshqa mamlakatlarda ham qabul qilingan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. H.B.Durdona.Buxoro.-B.79. Dinshunoslik.Haydarova
2. DINSHUNOSLIK O‘quv qo‘llanma.
3. Issuing God's Call : Jesus' Relationship to his Disciples“, God's Equal : What Can We Know About Jesus’ Self-Understanding?, Bloomsbury T&T Clark, ISBN 978-0-567-43111-0, qaraldi: 2024-07-18
4. Roddygin L.A. Vvedenie v religioznovedenie. M., 1996.
5. Zakon boji? Novaya kniga o pravoslavnoy vere. Volgograd. 6. M. lafasov, U. Jo’rayev. Jahon tarixi (o‘quv qo‘llanma). Toshkent - 2005
6. D. Urakov, A. Xolliyev va boshqalar. Jahon tarixi (1-tom, 1jild). Toshkent – 2020